

ABDULLOH IBN MUQAFFA “AL-ADAB AL-KABIR” ASARINING SIYOSATNOMA AN’ANALARI RIVOJIDAGI ROLI**Saidov S.A. -**

*Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Ilmiy tadqiqot bo'limi boshlig'i,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
TerDU DSc doktoranti*

Falsafa tarixidan ma'lumki, azal-azaldan faylasuf-allomalar jamiyatni farovonlikka yetaklovchi, davlatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlovchi adolatli hukmdor, odil rahbar g'oyasini o'z ta'limotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri deb hisoblaganlar. Qadimiy sivilizatsiyalarda, xususan antik davr Yunonistonda, hind falsafasida, fors tafakkur tarixida va nihoyat musulmon allomalarining ta'limotlarida hukmdorlarni adolatga undovchi g'oyalar ustuvor ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, hind falsafiy merosining noyob namunalaridan biri hisoblangan, hayvonlar misolida insoniyat jamiyatidagi nuqsonlarni majoziy nuqtai nazardan ochib beruvchi “Kalila va Dimna” (Panchatantra) asari nafaqat hind tamadduni tarixida, balki fors va islom sivilizatsiyalari tarixida ham chuqur iz qoldirgan asarlardan biridir. Shuningdek, antik davr yunon faylasufi Platonning “Davlat”, “Qonunlar” kabi asarlari, Aristotelning ijtimoiy-siyosiy g'oyalarida fozil jamiyat qurish yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berilgan. Fors falsafiy tafakkur tarixida esa “Andarznoma”, “Xudoynoma”, “Oyinnoma”, “Kitobi Tansar” kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan asarlarda hukmdor va hukmron qatlam egallashi lozim bo'lgan axloqiy fazilatlar tavsiflangan.

Musulmon sivilizatsiyasida ham falsafiy tafakkur taraqqiyotining ilk bosqichlaridan boshlab siyosiy axloq masalalari mutafakkirlarning diqqat-e'tiborida turgan. Xususan, Abdulloh ibn Muqaffaning (vaf. 759-y.) “al-Adab al-kabir”, “al-Adab as-sag'ir”, “Risola as-sahoba”, Abulhasan Movardiyning (vaf. 1058-y.) “al-Ahkom as-sultoniyya”, “Adabu-l-vazir”, Kaykovusning (vaf. 1087-y.) “Qobusnoma”, Nizomulmulukning (vaf. 1092-y.) “Siyosatnoma”, Xoja Samandar Termiziyning (vaf. taxminan 1740-y.) “Dastur al-muluk” asarlari hukmdorlarga davlat boshqaruvida amal qilinishi lozim bo'lgan axloqiy fazilatlar borasida muhim tavsiyalarni taqdim etadi.

Falsafa tarixida hukmdor va mulozimlarni, umuman siyosiy qatlam vakillarini go'zal axloqiy fazilatlar bilan ziynatlanishga da'vat qiluvchi bu kabi asarlar siyosatnoma turkumidagi asarlar sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni siyosatnoma turkumida yozilgan asarlarda siyosat va axloq ilmlarining dialektik aloqadorligi yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz [5].

Yuqorida zikr qilingan siyosatnomalar orasida o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi asarlardan biri sifatida Abdulloh ibn Muqaffaning “al-Adab al-kabir” asarini qayd etib o'tish joiz. Ushbu asarning tarkibiy tuzilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u ikki qismdan iborat. Asarning birinchi qismi do'stlik munosabatlari, do'stlikning shartlari, uning jamiyat birdamligi uchun ahamiyatiga bag'ishlangan. Ikkinchi qism esa “Sultonlik odobi” deb nomlanadi. Mazkur qismda hukmdor, uning axloqiy sifatleri, oddiy xalq bilan munosabatlarda amal qilishi lozim bo'lgan axloqiy tamoyillar, adolat va uning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati, davlat boshqaruvida dono vazirlarning roli, majlis va mashvaratning o'rni, din va davlat munosabatlarida amal qilinishi lozim bo'lgan jihatlar, hasad, xasislik, shoshqaloqlikning hukmdor siyosatidagi zararlari kabi masalalarga urg'u berilgan.

X asrda yashagan mashhur islom ensiklopedik olimi Ibn Nadimning (vaf. 990-y.) ta'kidlashicha, Abdulloh ibn Muqaffa o'zining “al-Adab al-kabir” asarini fors sivilizatsiyasining siyosatnoma turkumiga kiruvchi mashhur asarlaridan ta'sirlangan holda yozgan [6].

“Al-Adab al-kabir” asarining muqaddimasi quyidagicha boshlanadi:

“Bizning ajdodlarimiz bizga nisbatan ulkanroq jismga ega bo'lganlar, ular bizga nisbatan mulohazakorroq, baquvvatroq, mohirroq bo'lganlar... Ular o'zlari qo'lga kiritgan ilmni bizga qadar yetkazmagunlaricha erishgan yutuqlaridan qoniqish hosil qilmaganlar va shu sababdan ham boqiy kitoblar yozganlar, ishonchli dalillar ko'rsatganlar, shu orqali bizni tajriba va fahm-farosat manbai bilan ta'minlaganlar. Bizning zamonimizdagi olimlarning ilmi ularning ilmidan olingan,

bizning oliyhimmat, saxiy insonlardagi xayr-ehson g'oyasi ularning hayot yo'llaridagi faoliyatlariga ergashadi. Go'yoki hozirgi allomalar o'tmish mutafakkirlari bilan suhbatlashib, ularni tinglaganlar, ularning faoliyatlarini davom ettirib, xatti-harakatlariga taqlid qilganlar. Bundan tashqari, o'tmish allomalarning kitoblaridan topganlarimiz ularning fikrlarining eng saralari va so'zlarining asllaridir. Shundan kelib chiqib, men ushbu kitobimda odamlar ehtiyoj sezadigan adabga oid hikmatlar haqida yozdim" [1].

Ushbu fikrlardan shu narsa anglashiladiki, "al-Adab al-kabir" asaridagi fikr va mulohazalarning yaratilishida dunyoning yuksak sivilizatsiyalari yutuqlarining ta'siri katta bo'lgan.

Asarda Abdulloh ibn Muqaffa hukmdorlik san'ati borasida fikr yuritarkan, hokimiyat vakillari egallashi lozim bo'lgan bir qancha axloqiy xislatlarga o'z diqqatini qaratadi. Uning fikricha, hokimiyat tizimida bo'lishni istagan kishi maqto'v va madhga emas, balki ulamolarning madadiga tayansin. U eng avvalo Alloh taolo, so'ngra esa hukmdor va uni qo'llab-quvvatlovchi solih insonlarning roziligiga erishsin. Din va muruvvat ahlini e'zozlasin, ammo butun xalqning rizoligiga erishaman deb behudaga urinmasin. U o'z mulozimlarining vazifalarini va hol-ahvollarini nazorat qilsin, unga muxolifatda bo'lganlarga nisbatan o'zida sabr-toqatni shakllantirsin. Qalbini muhim ishlar uchun bo'shatsin, munosib insonlarni taqdirlab, fazilat ahllariga saxovat ko'rsatsin. Aybsizlarni jazolab, haqorat qilmasin. Haqiqiy hokimiyatga munosib inson bo'lsa, g'azabga berilmasin, aldamasin, baxillik qilmasin, fuqaroga nisbatan adovat saqlamasin, qasamxo'r bo'lmasin. Bunday inson yomon xayollarga berilmasin, so'z va amal borasida esa qat'iyatli bo'lsin [1].

Abdulloh ibn Muqaffa "al-Adab al-kabir" asarida hukmdorlar va voliyar bilan do'st, yo'ldosh bo'lish va ularning shartlari masalasiga o'z e'tiborini qaratadi. U hukmdorga yaqinlashish uchun ehtiyotkor bo'lish va xatoga yo'l qo'ymaslik lozimligini ta'kidlaydi. Hukmdor kimni o'z birodaridek qabul qilsa, o'sha inson hukmdorni o'z otasi kabi qabul qilsin, hukmdorning haqiqiy ishonchiga sazovor bo'lsin, unga xushomadgo'ylik qilmasin, hukmdorga duo qilishni haddan oshirmasin, faqatgina mehr-muhabbat asosida hukmdor bilan yo'ldosh va hamsuhbat bo'lsin. Sultonning ishonchiga erishmoqchi bo'lgan kishi o'z fikrini to'g'rilashi, uni havoyi narsalar bilan aralashtirish yubormasligi kerak. U hukmdorga ta'na qilishga jur'at etmasligi, uning huzurida unga aloqasi bo'lmagan gaplarni gapirmasligi, hukmdorning yaqin insonlarini haqida yomon gaplar gapirmasligi ham muhim jihatlardandir.

"Al-Adab al-kabir" asarini tadqiq qilish davomida Abdulloh ibn Muqaffa davlat boshlig'ini adab va axloqiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxs sifatida tasavvur qilganligi to'g'risidagi xulosaga kelish mumkin. Ya'ni, siyosiy faoliyatni adab ilmining ishtirokisiz tasavvur etish mumkin emas. Davlat va jamiyat rivojlanishida dinning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan holda mutafakkir hukmdor uchun hokimiyatni mustahkamlashda din arboblarning o'rni yuqori ekanligini e'tirof etadi:

"Har bir viloyat, qishloq va qabilada din ahlining hurmat-e'tibori yuqori ekanligini yaxshi bilib olgin. Sen ularni o'z birodarlaring, yaqin yordamchilaring, chin do'stlaring, ishonchli insonlaringga aylantirgin" [1].

Tarixdan ma'lumki, hukmdor va din arboblari orasidagi yaxshi munosabatlar hokimiyat barqarorligining asosiy shartlaridan biri hisoblangan. Chunki hukmdorning diniy ulamolarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishi unga nisbatan xalqning adovati kuchayishiga, bu esa o'z navbatida hokimiyatning zaiflashuviga olib kelgan. Xususan, VIII asrda islom dini ham siyosiy, ham geografik jihatdan tez sur'atlar bilan kengayib borishi jarayonida xalifalar o'z hukmronliklarini mustahkamlash uchun diniy ulamolarning yordamiga tayandilar. Chunki islom jamiyatida kuchli hokimiyatning asosiy shartlaridan biri sifatida din va siyosat o'rtasidagi mustahkam aloqa tushunilgan. Hukmdor va diniy ulamolarning o'rtasidagi aloqalar ayniqsa 750-yilda hokimiyatni egallagan Abbosiylar sulolasining xalifaligi davrida rivojlandi. Abbosiy xalifalar o'z siyosiy faoliyatlarida diniy ulamolarning bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga intildilar, ularga muhim davlat lavozimlarini topshirdilar. Jumladan, xalifa Ja'far al-Mansur hukmronligi davrida (754-775-y.) Molik ibn Anas (vaf. 179/795-y.) xalifaning amakisi Ja'far ibn Sulaymon tomonidan davlat siyosatiga zid fatvolar berganlikda ayblanib, jazoga tortiladi. Bu holat butun xalifalik hududiga

katta norozilik harakatlarining yuzaga kelishiga olib keldi. Buning natijasida xalifa Mansur Ja'far ibn Sulaymonni jazoga tortdi va Imom Molikdan kechirim so'radi. Xalifa Mansur va Imom Molik o'rtasida o'rnatilgan do'stona munosabatlar keyinchalik islom tarixidagi muhim asarlardan biri hisoblangan "Muvatto" (موطأ – Ommabop) asarining yozilishida muhim ahamiyat kasb etdi [7].

Hukmdor hokimiyatda mustahkam turishni xohlasa, doimo diniy ulamolar, ilm ahli va fazilatli insonlardan maslahat olib turishi, maqtovlarga o'zining moyilligini ko'rsatmasligi kerak. Chunki bunday holat haqida uning fuqarolari xabar topsa, uning bu kamchiligi hokimiyat tizimida bo'shliqning yuzaga kelishiga va oxir-oqibatda hokimiyatning zaiflashuviga sababchi bo'ladi. Xususan, mutafakkir bu borada shunday deb yozadi:

"Shuni bilginki, maqtovlarni yaxshi ko'ruvchi inson xuddi o'zini-o'zi maqtayotgan kishi kabidir" [1]. Darhaqiqat, noo'rin maqtov hukmdor va mulozimlarning o'z ish-faoliyatlarini samarali tashkil etishlariga to'siq bo'luvchi salbiy illatdir.

Abdulloh ibn Muqaffaning hokimiyat, uning mohiyati, siyosat, do'stlik masalalari to'g'risidagi hikmatlari keyingi davr islom mutafakkirlarining asarlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy (vaf. 950-y.), Abu Ali ibn Sino (980-1037-y.) kabi allomalarning asarlarida ham Abdulloh ibn Muqaffa qarashlarining ta'sirini ko'rish mumkin [10].

X asr musulmon olimi Abulhasan al-Omiriy (913-992-yy.) o'zining "as-Saodat va-l-is'od" (السعادة و الإِسعاد) asarining 17 joyida "al-Adab al-kabir" asaridagi hikmatlardan iqtiboslar keltirib, o'z fikrlarini Abdulloh ibn Muqaffa g'oyalari orqali asoslaydi [4].

Andalusiyalik alloma Abu Bakr Muhammad at-Turtushiy (1059-1126-yy.) o'zining mashhur "Siroj al-muluk" (سراج الملوك) asarida davlat, uning asoslari, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy ustunlarini yoritishda "al-Adab al-kabir" asaridan ko'p o'rinlarda misollar keltiradi [2].

Shuningdek, XII asrda yashagan mutafakkir Usama ibn Munqizning (1095-1188-yy.) "Lubob al-albob" (لباب الألباب), iroqlik shoir va kotib Ibn Hamdunning (1102-1167-yy.) "Tazkira" (شرح النهج البلاغة) asarida, Ibn Abu al-Hadidning (1190-1258-yy.) "Sharh an-nahj al-balog'at" (شرح النهج البلاغة) kabi asarlarida ham Abdulloh ibn Muqaffaning "al-Adab al-kabir" asaridan ko'plab hikmatlar keltirilgan [9].

"Al-Adab al-kabir" asarida Ibn Muqaffa hukmdor va voliyar siyosiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida g'azab illatidan saqlanish masalasiga alohida e'tibor qaratib, siyosiy tizimning to'g'ri faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir qiluvchi ushbu illatdan hukmdorlar saqlanishlari lozimligini qayd etadi:

"Hukmdorlar orasida jahli chiqqanda rahm-shafqatni unutadigan, o'z iqtidorini g'azabiga sarflaydigan, shoshqaloqlik qiladigan sultondan yomonroq inson yo'qdir. Chunki g'azab natijasida uning aqli to'g'ri yo'ldan adashib qoladi. Oqibatda, uning g'azablanishiga hech bir aloqasi bo'lmagan insonlarni jazolab, umuman nomunosib insonlarni esa mukofotlaydi" [1].

Bu orqali mutafakkir sulton va voliyalarda namoyon bo'ladigan g'azab illatini hech narsa bilan oqlab bo'lmasligini, g'azab kuch-qudrat belgisi emas, aksincha zaiflik va baxtsizlik timsoli ekanligiga urg'u beradi.

"Al-Adab al-kabir" asariga e'tibor qaratsak, unda islohotchilik harakatini eng avvalo jamiyatning yuqori qatlamidan boshlash lozimligiga urg'u berilganligini ko'ramiz. Avvalo sulton, undan keyin voliyar, keyin esa xalq. Mutafakkir voliyning isloh qilinishini eng avvalo sultonning isloh qilinishi bilan bog'laydi. Raiyatning isloh qilinishi esa voliyning isloh qilinishiga bog'liqdir. Demak, voliy sulton va raiyat o'rtasidagi munosabatlarni isloh qilishda asosiy vosita, zanjir vazifasini bajaradi. Ya'ni, xalqning hayotini isloh qilishning asosiy vositasi sifatida birinchi navbatda boshqaruv tizimini, amaldorlarni isloh qilish, amaldorlarni isloh qilish uchun esa hukmdorni isloh qilish kerak.

"Al-Adab al-kabir" asarining asosiy qismida hukmdorning maslahatchilariga, mashvaratning foydalariga e'tibor qaratiladi. Maslahatlashuvning muhim jihati shundaki, qarorlar bir shaxs tomonidan emas, balki ko'pchilik bilan maslahatlashilgan holda qabul qilinadi. Bu jarayonda bahamjihatlik, o'zaro kelishuv asosida mas'uliyat talab qiladigan masalalarda qaror qabul qilish orqali ko'zlangan maqsadga erishiladi. Islom shariatiga ko'ra, maslahatlashuv siyosatning asosiy tamoyillaridan biridir. Boshqaruvchilar ma'muriy sohalarda, xususan xalqni idora qilish,

uning farovonligini ta'minlash borasidagi masalalarda ulamolar bilan maslahatlashishlari lozim. Hukmdorlarga xos bo'lgan jo'shqinlik va shoshqaloqlik tufayli ular noto'g'ri siyosat yuritishlari mumkin. Bilimdon, donishmand kishilar hukmdor qalbini mag'rurlik, shuhratparastlik, shafqatsizlik, ochko'zlik va zo'ravonlik kabi kasalliklardan forig' bo'lishiga yordam beradilar. Ular hukmdorni olijanoblik va muruvvat ruhida tarbiyalashlari, hukmdor esa ularning ta'siri ostida oddiy fuqaroga nisbatan g'amxo'r va iltifotli bo'lishi hamda ular uchun adolatli qonunlar qabul qilishi kerak [8]. Mutafakkirning bu yondashuvi o'sha davr uchun ancha mukammaldir. Bu orqali bilimdon va donishmand maslahatchigina davlat boshlig'ini noto'g'ri qarorlar qabul qilishdan saqlay olishini, aql-zakovati orqali hukmdorni adolatli inson qilib tarbiyalay olishini Ibn Muqaffa siyosiy tajribasi orqali tushunganligi namoyon bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Abdulloh ibn Muqaffa islom tamadduni tarixidagi eng ziddiyatli, turli diniy-mafkuraviy xurujlar avj olgan, siyosiy qarama-qarshiliklar kuchaygan bir davrda yashashiga qaramay, hukmdorlarni odillikka, xalqni oqilona boshqarishga, siyosiy qatlamni axloqiy barkamollikka, nafs nazoratiga chorlovchi bebaho asarlar yaratdi. Ushbu asarlar esa o'z navbatida asrlar davomida shu turdagi g'oyalar uchun muhim manba bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulloh ibn al-Muqaffa. Al-Adab as-sag'ir va al-adab al-kabir. – Bayrut: Dor Bayrut, 1977. – 139 b.
2. Abu Bakr Muhammad at-Turtushiy. Siroj al-muluk. – Misr: Maktaba al-vataniyya, 1872. – 328 b.
3. Abu Muhammad Abdulloh ibn Muqaffa. Al-Adab al-kabir. Al-Adab as-sag'ir. Risola as-sahoba. Tarjimon: Sarvar Saidov – Termiz: “Kitobnashr” nashriyoti, 2022. – 152 b.
4. Abulhasan Muhammad ibn Abu Zurra Yusuf al-Omiriy. As-Saodat va-l-is'od. – Bayrut: Amerika universiteti kutubxonasi: 1918. – 508 b.
5. Houda el Ayyadi. Estudio y traducción de al-Adab al-ṣagīr y al-adab al-kabīr de Ibn al-Muqaffa. Tesis doctoral. – Málaga: 2016. – 545 p.
6. Ibn Nadim. Kitob al-fihrist. – Bayrut: Dor al-ma'rifa. – 545 b.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Fiqhiy yo'nalishlar va kitoblar. – Toshkent: “Nilol-nashr” nashriyot-matbaasi, 2022. – B. 31.
8. Shelomo Dov Goitein. Studies in Islamic history and institutions. – Leiden: Koninklijke Brill NV incorporates the imprints Brill. Hotei Publishing, 2010. – 415 p.
9. Usoma ibn Munqiz. Lubob al-albob. – Misr: Dor al-jiyl, 1987. – 559 b; Ibn Hamdun. Tazkira. – Bayrut: Amerika universtiteti kutubxonasi, 1967. – 144 b; Ibn Abu al-Hadid. Sharh an-nahj al-balog'at. – Qam: Maktaba Oyatulloh al-Uzma, 1986. – 716 b.
10. Ханна ал-Фахури. История арабской литературы. Сб.соч. 2 Т. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1959. Т. 1. – С. 362.

REZYUME:

Ushbu maqolada Islom falsafasi tarixida yozilgan siyosatnomalar, ularning hukmdor va amaldorlar ma'naviy fazilatlarini yuksaltirishdagi roli, bu jarayonda Abdulloh ibn Muqaffa falsafiy merosining o'рни ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Islom falsafasi, Abdulloh ibn Muqaffa, “al-Adab al-kabir”, odil hukmdor, adolat, siyosat, axloq, jamiyat, inson, fuqaro, do'stlik.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье рассматриваются написанные в исламской философии политические трактаты, их роль в повышении нравственных качеств правителей и государственных деятелей, а также место философского наследия Абдуллоха ибн Мукаффы в этом процессе.

Ключевые слова: исламская философия, Абдуллах ибн Мукаффа, «ал-Адаб ал-кабир», справедливый правитель, справедливость, политика, этика, общество, человек, гражданин, дружба.

RESUME:

Abstract. This article examines the political treatises written in the history of Islamic philosophy, their role in enhancing the moral qualities of rulers and state officials, and the place of Abdullah ibn Muqaffa's philosophical heritage in this process.

Keywords: Islamic philosophy, Abdullah ibn Muqaffa, "Al-Adab al-kabir", just ruler, justice, politics, ethics, society, human, citizen, friendship.